



ERON VA MARKAZIY OSIYO O'RTASIDAGI ENERGETIK HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Olimjonov Salohiddin Sohijjon o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
siyosiy fanlar doktori professor Muqimjon Qirg'izboyev

nomidagi "Siyosiy fanlar" kafedrasida stajor o'qituvchisi
salohiddinolimjonov05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640816>

ARTICLE INFO

Received: 1st June 2026

Accepted: 5th June 2026

Published: 11th June 2026

KEYWORDS

Eron, Markaziy Osiyo,
energetik hamkorlik, tabiiy gaz, neft,
tranzit, geosiyosat, energetik
xavfsizlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning hozirgi holati hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Mintaqaning uglevodorod resurslariga boyligi, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi va geosiyosiy omillar energetika sohasidagi hamkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari Eronning tranzit salohiyati va Markaziy Osiyo mamlakatlarining energiya eksportini diversifikatsiya qilishga bo'lgan intilishi o'zaro manfaatli hamkorlik uchun muhim asos ekanligini ko'rsatadi.

Kirish

XXI asrda energetika sohasi xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Energiya resurslariga bo'lgan talabning ortib borishi, ularni qazib olish va tashish yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish zarurati hamda global energetik xavfsizlik masalalari davlatlarni yangi hamkorlik mexanizmlarini izlashga undamoqda. Shu nuqtai nazardan, ulkan neft va tabiiy gaz zaxiralari ega bo'lgan Eron hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Markaziy Osiyo mintaqasi dunyodagi yirik uglevodorod resurslariga ega hududlardan biri hisoblanadi[2]. Xususan, Qozog'iston va Turkmaniston neft va tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, O'zbekiston esa tabiiy gaz ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi muhim davlatlardan sanaladi. Shu bilan birga, mintaqaning dengizga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emasligi energiya resurslarini jahon bozorlariga yetkazib berishda transport va tranzit masalalarini strategik ahamiyatga ega bo'lgan omilga aylantirmoqda. Mazkur sharoitda Eronning qulay geografik joylashuvi, Fors ko'rfazi va Ummon dengizi orqali xalqaro dengiz yo'llariga chiqish imkoniyati Markaziy Osiyo davlatlari uchun muqobil transport yo'nalishlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi[2].

So'nggi yillarda xalqaro energetika bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlar, energiya iste'molining ortishi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi va global logistika tizimlaridagi

transformatsiyalar Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xususan, gaz almashinuvi (swap) mexanizmlari, neft mahsulotlari tranziti, elektr energiyasi almashinuvi va xalqaro transport yo'laklari doirasidagi hamkorlik mintaqaviy integratsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda "Shimol-Janub" xalqaro transport yo'lagi, Kaspiy dengizi orqali tashuvlar hamda Fors ko'rfazi portlaridan foydalanish imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlar, xalqaro sanksiyalar, yirik davlatlarning mintaqadagi manfaatlari va energetika bozorlaridagi raqobat Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, mintaqadagi davlatlari eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali energetik xavfsizlikni mustahkamlashga intilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Eron o'zining tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish orqali mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga harakat qilmoqda. Shu sababli, energetik hamkorlikning istiqbollari o'rganish, mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan bo'lib, mavjud tadqiqotlarni shartli ravishda geosiyosiy, geoiqtisodiy hamda mintaqaviy energetik xavfsizlik yo'nalishlariga ajratish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda mintaqaning energetik salohiyati, transport-tranzit yo'laklari, geosiyosiy raqobat va xalqaro aktorlarning manfaatlari asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan.

Eronning Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy va energetik aloqalari masalalari bo'yicha yirik tadqiqotchilardan biri Anoushiravan Ehteshami hisoblanadi. U o'zining "Iran and Eurasia" asarida Eronning Yevrosiyoda makonidagi geoiqtisodiy o'rni va Markaziy Osiyo davlatlari bilan energetika sohasidagi hamkorligi istiqbollari tahlil qilib, mamlakatning geografik joylashuvi va Fors ko'rfaziga chiqish imkoniyatlari mintaqaviy energetik integratsiyaning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Muallif Eronning tranzit salohiyati va Markaziy Osiyo davlatlarining muqobil eksport yo'nalishlariga bo'lgan ehtiyoji o'zaro manfaatli hamkorlik uchun qulay sharoit yaratishini qayd etadi.[3]

Roy Allison Markaziy Osiyodagi xavfsizlik va geosiyosiy jarayonlarni tadqiq etar ekan, mintaqadagi energetik resurslar yirik davlatlar manfaatlari to'qnashadigan strategik omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Rossiya, Xitoy, AQSh va Eronning mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy manfaatlari energetik hamkorlikning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mintaqadagi energetik loyihalar faqat iqtisodiy manfaatlar bilan emas, balki geosiyosiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir.[4]

Amerikalik tadqiqotchi Stephen Blank Markaziy Osiyo davlatlarining energetik strategiyalarini o'rganib, energiya resurslarini eksport qilish yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, mintaqadagi davlatlari birgina transport yo'nalishiga qaram bo'lib qolmaslik uchun yangi tranzit imkoniyatlarini izlashga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Eron hududi orqali Fors ko'rfazi portlariga chiqish Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun iqtisodiy jihatdan istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.[5]

Frederick Starr Markaziy Osiyoning geostrategik ahamiyatini tadqiq etar ekan, mintaqadagi Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi strategik hudud ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, transport-kommunikatsiya va energetik infratuzilmani rivojlantirish Markaziy Osiyo davlatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini jadallashtiradi.

Rossiyalik tadqiqotchi Aleksey Malashenko Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlar va Eronning mintaqadagi manfaatlari tahlil qilib, Eronning iqtisodiy va transport-tranzit salohiyati Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishiga xalqaro sanksiyalar va geosiyosiy qarama-qarshiliklarning ta'siri alohida qayd etilgan.[6]

Shuningdek, Xalqaro energetika agentligi (IEA), BP Statistical Review of World Energy, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki hisobotlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarining energiya resurslari salohiyati, energiya bozorlaridagi tendensiyalar hamda transport-tranzit yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha muhim statistik ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur hisobotlar mintaqadagi energiya iste'moli va eksport hajmlarining o'sib borayotganligini hamda yangi transport yo'nalishlariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya va energetik xavfsizlik masalalari o'rganilgan. Xususan, A. Rashidov, A. Umarov, S. Bo'ronov, B. Isomiddinov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida Markaziy Osiyoning geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlari, mintaqaviy hamkorlik va transport-kommunikatsiya yo'laklarining rivojlanishi tahlil qilingan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik masalalari kompleks tarzda, ayniqsa zamonaviy geosiyosiy o'zgarishlar va xalqaro energetika bozorlaridagi transformatsiyalar sharoitida yetarlicha yoritilmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Eron va Markaziy Osiyo o'rtasidagi energetik hamkorlikning iqtisodiy, transport-tranzit va geosiyosiy jihatlari alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishdagi zamonaviy tendensiyalar, mintaqaviy energetik xavfsizlik va geoiqtisodiy transformatsiyalar bilan bog'liq masalalarni kompleks tarzda o'rganishga ehtiyoj mavjud. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning rivojlanish istiqbollari geosiyosiy va geoiqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi energetik aloqalarning rivojlanish tendensiyalari baholandi.

Muhokama

Eron va Markaziy Osiyo davlatlari energiya resurslariga boy hududlar sifatida jahon energetika tizimida muhim o'rin egallaydi. Eron tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha dunyoda Rossiyadan keyingi o'rinlardan birini egallab, yirik neft zaxiralari ham ega. Markaziy Osiyoda esa Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston uglevodorod resurslariga boy davlatlar hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarning energiya resurslari salohiyati ularning xalqaro energetika bozoridagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar faollashib, energetika yo'nalishidagi hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Turkmaniston va Eron o'rtasida gaz almashinuvi (swap) mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi ikki davlat manfaatlariga xizmat qilmoqda[7]. Ushbu tizim orqali Turkmaniston gazi Eron hududi orqali boshqa iste'molchilarga yetkazib berilishi mumkin bo'lmoqda.

Qozog'iston bilan neft va neft mahsulotlari tranziti masalalari, O'zbekiston bilan esa energetika, neft-kimyoy va logistika sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish bo'yicha qator kelishuvlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, elektr energiyasi almashinuvi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha hamkorlik istiqbollari ham tobora kengayib bormogda. Ayniqsa, O'zbekistonning "ochiq va pragmatik tashqi siyosati" hamda Eronning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyasi ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Energetik hamkorlikning samaradorligi ko'p jihatdan transport-kommunikatsiya tizimining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Markaziy Osiyo davlatlarining dengizga to'g'ridan-to'g'ri

chiqish imkoniyatiga ega emasligi energiya resurslarini eksport qilishda tranzit yo'laklarining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Eronning Fors ko'rfazi va Ummon dengizidagi portlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro bozorga chiqish imkonini beruvchi muhim transport yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, "Shimol-Janub" xalqaro transport yo'lagi hamda Kaspiy dengizi orqali amalga oshirilayotgan tashuvlar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda[8].

Eron va Markaziy Osiyo o'rtasidagi energetik hamkorlik faqat iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanib qolmay, balki geosiyosiy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mintaqada Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya va Yevropa Ittifoqining manfaatlari kesishib, bu energetik loyihalarning amalga oshirilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.[9]

Rossiya an'anaviy ravishda Markaziy Osiyo energetika bozoridagi o'z mavqeini saqlab qolishga intilayotgan bo'lsa, Xitoy "Bir makon-bir yo'l" tashabbusi doirasida mintaqadagi energetika va transport infratuzilmalariga yirik investitsiyalar kiritmoqda. Yevropa Ittifoqi esa energiya manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda.

Umuman olganda, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik iqtisodiy manfaatlar, geostrategik omillar va mintaqaviy integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mavjud muammolarga qaramasdan, tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari, uning geoiqtisodiy va geosiyosiy asoslari hamda istiqboldagi imkoniyatlari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari energetika sohasidagi hamkorlik mintaqaviy integratsiya va energetik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Birinchiidan, Eronning geostrategik joylashuvi va Fors ko'rfazi hamda Ummon dengiziga chiqish imkoniyatlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun energiya resurslarini jahon bozorlariga yetkazib berishda muhim tranzit yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, mintaqa davlatlarining dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi Eron hududi orqali amalga oshiriladigan transport-kommunikatsiya yo'laklarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu jihatdan, Eron Markaziy Osiyo davlatlari uchun muqobil va iqtisodiy jihatdan qulay transport-logistika markazi sifatida namoyon bo'lmoqda.[10]

Ikkinchiidan, Markaziy Osiyo davlatlarining energetika sohasidagi strategik maqsadlaridan biri eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va energiya resurslarini tashishda bir yoqlama qaramlikni kamaytirishdan iborat ekanligi aniqlandi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda Eronning transport-tranzit salohiyati va energetika infratuzilmasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tomonlarning manfaatlari o'zaro uyg'unlashayotganini ko'rsatadi. Uchinchiidan, Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik faqat neft va tabiiy gaz bilan cheklanib qolmay, balki elektr energetikasi, neft-kimyxo sanoati, energetik logistika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kabi istiqbolli yo'nalishlarni ham qamrab olayotgani aniqlandi. Bu esa hamkorlikning ko'p qirrali va uzoq muddatli xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, transport-tranzit infratuzilmasining rivojlanishi energetik hamkorlik samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi. Xususan, "Shimol-Janub" xalqaro transport yo'lagi, Kaspiy dengizi orqali tashuvlar hamda Eronning Bandar Abbas va Chobahor portlaridan foydalanish imkoniyatlari Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro bozorlar bilan iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur transport yo'laklari yuk tashish xarajatlarini kamaytirish va eksport geografiyasini kengaytirishga yordam beradi.

Beshinchidan, geosiyosiy omillar energetik hamkorlikning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi strategik manfaatlari energetik loyihalarning amalga oshirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, Eronga nisbatan qo'llanilayotgan xalqaro sanksiyalar xorijiy investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini cheklayotgan asosiy omillardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi.[11]

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlik geoiqtisodiy manfaatlarning uyg'unligi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida yanada kengayish uchun salmoqli salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, geosiyosiy raqobat, xalqaro sanksiyalar va ayrim infratuzilmaviy muammolar mavjud bo'lishiga qaramasdan, tomonlar o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlik energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishning muhim omili bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning zamonaviy holati, rivojlanish omillari hamda istiqboldagi imkoniyatlari geoiqtisodiy va geosiyosiy jihatdan kompleks tarzda tahlil qilindi. Eron va Markaziy Osiyo davlatlari energiya resurslari, transport-tranzit imkoniyatlari va geografik joylashuvi jihatidan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi salohiyatga ega. Bu esa energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam iqtisodiy asos mavjudligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoji hamda Eronning Fors ko'rfazi va Ummon dengizi orqali xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari tomonlar manfaatlarining uyg'unlashuviga xizmat qilmoqda. Shu sababli Eron mintaqada davlatlari uchun muhim tranzit va logistika hamkorlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy manfaatlar bilan, balki geosiyosiy omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi strategik manfaatlari hamda xalqaro sanksiyalar energetik loyihalarning amalga oshirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Transport-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi energetik hamkorlikning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, "Shimol-Janub" xalqaro transport yo'lagi, Kaspiy dengizi yo'nalishlari hamda Eronning Bandar Abbas va Chobahor portlari Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim geoiqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy neft-gaz loyihalari bilan bir qatorda elektr energetikasi, neft-kimyo sanoati, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, vodorod energetikasi va "yashil energetika" yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari mavjudligi aniqlandi. Bu esa energetik hamkorlikning ko'p tarmoqli xarakter kasb etayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi energetik hamkorlikning rivojlanishi mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va energetik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib, mazkur yo'nalishdagi hamkorlik yaqin istiqbolda yangi bosqichga ko'tarilishi uchun zarur siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yergin D. The New Map: Energy, Climate and the Clash of Nations. – New York: Penguin Press, 2020.
- 2.BP Statistical Review of World Energy 2024. – London: BP plc, 2024.
- 3.Ehteshami A. Iran and Eurasia. – London: Routledge, 2013..
- 4.Ehteshami A. Iran and Eurasia. – London: Routledge, 2013.
- 5.Allison R. Central Asian Regionalism in Context. – London: Royal Institute of International Affairs, 2004.

- 6.Blank S. Central Asia's Energy Challenges. – Carlisle: Strategic Studies Institute, 2011.
- 7.Shaffer B. Energy Politics. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2009..
- 8.Malashenko A. The Fight for Influence: Russia in Central Asia. – Moscow: Carnegie Moscow Center, 2013..
- 9.International Energy Agency. World Energy Outlook 2024. – Paris: IEA, 2024.
- 10.OPEC. World Oil Outlook 2024. – Vienna: OPEC, 2024.
- 11.Eurasian Development Bank. Transport Corridors and Regional Integration in Eurasia. – Moscow, 2023.
- 12.Allison R. Central Asian Regionalism in Context. – London, 2004.
- 13.UNCTAD. World Investment Report 2024. – Geneva, 2024.
- 14.Ehteshami A. Iran and Eurasia.
- 15.Energy Charter Secretariat. Energy Security and Regional Cooperation Report. – Brussels, 2023. – P. 42.
- 16.International Renewable Energy Agency (IRENA). World Energy Transitions Outlook 2024.

